




unicef 
Har bir bola uchun

BOLALARNING MEHNAT HUQUQIGA OID

QO'LLANMA



**BOLALARNING
MEHNAT
HUQUQIGA OID**

QO‘LLANMA

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2024

UO'K: 34:030-053.5

B 43

KBD: 67YA2

Bolalarning mehnat huquqiga oid qo'llanma. – Toshkent. “Adolat”
milliy huquqiy axborot markazi, 2024-y.– 16 b.

ISBN

UO'K: 34:030-053.5

B 43

KBD: 67YA2

ISBN

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2024-y.



Bolalarning majburiy mehnati

Bolalar mehnatining har qanday majburiy shakli mamlakatimizda taqiqlanadi. Shuning uchun, mamlakatimiz **“Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risidagi”** konvensiyaga a‘zo bo‘lgan. Bolalarni katta yoshli odam (hattoki, uning ota-onasi) bolaning xohish-irodasiga qarshi mehnat qilishga majburlashi mumkin emas.



Masalan

bolaga yoshi katta inson yoki ota-onasi bolaning sog‘lig‘i uchun zarar bo‘lgan yoki u xohlamaydigan mehnat qilishiga majburlashi javobgarlikka sabab bo‘ladi.



Bolalar, sizlar majburiy mehnatdan himoya qilingansizlar, sizlar barcha yoshi kattalarning aytganlarini qilishga majbur emassizlar. Ayniqsa, ushbu harakatlar **qonunga zid bo‘lsa.**

Ota-onalar, ustozlar va bolaning boshqa yaqin qarindoshlari ham bolaning sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan va bolaning xohish-irodasiga zid bo‘lgan ishlarni bolaga qildirmasligi shart.

Bolalarning qonuniy ishlashi uchun qanday hujjatlar yordam beradi?

Bolalar o'zlari xohlagan joyda bemaolol ishlashi uchun asosiy uchta qonuniy hujjatlar bor. Ushbu hujjatlarni sanab o'tamiz:



Nogironlar huquqlari to'g'risida konvensiya



O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi



O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni



Mehnatga oid terminlar



Mehnat daftarchasi — mehnat faoliyati yozib boriladigan daftarcha.



Mehnat kodeksi — mehnat faoliyatini qonuniy tartibga soluvchi hujjat.



Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami — soliq to'laydigan odamlarga o'zining nomidan soliq to'lashi uchun beriladigan alohida raqam.



Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami — davlat tomonidan fuqaro uchun beriladigan shaxsiy raqam.



Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi — pensiya uchun jamg'arib boriladigan to'lovlar uchun daftarcha.



Kalendar kun — bu faqat ish kuni emas, balki har bir kun. Unga shanba va yakshanba ham kiradi.



Mehnat ta'tili — xodimning mehnat faoliyatida dam olishi uchun beriladigan ta'til muddati.



Masofaviy ishlash — ish joyida turmasdan, ish joyidan boshqa xodim uchun qulay bo'lgan joydan turib ishlashi hisoblanadi.



Xizmat safari — ish joyidan boshqa shahar yoki tumanga xodimning ish yuzasidan yuborilishi hisoblanadi.


Necha yoshdan ishga kirish mumkin?

To'g'ri, bolalar xohlagan yoshdan boshlab ishlayverishi mumkin. Ammo bu qonuniymi yoki yo'qmi? Shuni ham bilib qo'yish lozim.



QONUNGA KO'RA

- bolalar **16 YOSHDAN** boshlab ishlashi mumkin.
- ota-onasining roziligi bilan **15 YOSHDAN** boshlab ishlashi mumkin.



Agar sizning yoshingiz ushbu yoshlardan kichikroq bo'lsa **ishlashga shoshilmang**. Chunki, sizni deb sizning **ota-onangiz javobgarlikka tortilishi mumkin**. Qolaversa, o'zingizning sog'lig'ingiz va o'qishingiz zarar qilib qo'yishingiz mumkin.

Qanday qilib ishga kirish mumkin?

Siz o'zingiz bilgan joylarga yoki internet orqali topgan joylaringizga ishga kirishingiz mumkin. Ammo ushbu ish joylari qanchalik qonuniy ishlashini tekshirishingiz lozim bo'ladi.

ISHGA QUYIDAGI HUJJATLARNI TOPSHIRISH LOZIM:



pasport yoki **ID-karta**, 16 yoshgacha bo'lgan shaxslar esa **tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani** yoki identifikatsiyalovchi **ID-karta**;



oxirgi ish joyi bo'yicha tasdiqlangan qog'oz shaklidagi **mehnat daftarchasini** yoki **elektron mehnat daftarchasidan ko'chirmani**, birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar shart emas;



harbiy guvohnomani yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnoma;



soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;



ta'lim tashkilotini tamomlaganligi to'g'risidagi **diplom, guvohnoma** (sertifikat) yoxud boshqa tegishli hujjat;



jismoniy shaxsning **shaxsiy identifikatsiya raqamini** (mavjud bo'lganda);



jamg'arib boriladigan **pensiya daftarchasi**, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno.

Ish vaqti

Nogironligi bo'lgan bolalar uchun ish vaqtining davomiyligi



16 dan 18 sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalar uchun



haftasiga **36 soatdan oshmaydigan** bo'lishi kerak.

DEMAK, SIZ



olti kunlik ishda kuniga **6 soatgacha**



besh kunlik ishda kuniga **7 yarim soatgacha** ishlashingiz mumkin



15 dan 16 sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalar uchun



haftasiga **24 soatdan oshmaydigan** bo'lishi kerak.

DEMAK, SIZ



olti kunlik ishda kuniga **4 soatgacha**



besh kunlik ishda kuniga **5 yarim soatgacha** ishlashingiz mumkin



O'quv yili davomida o'qishdan bo'sh vaqtda ishlayotgan o'quvchilarning ish vaqti davomiyligi **18 soatdan oshishi mumkin emas.**

Mehnat ta'tili



Kamida 30 KALENDAR KUN mehnat ta'tili beradi.

Demak, bolalar yiliga shuncha vaqt mehnat ta'tili olib, dam olishi mumkin. Bolaning xohishiga ko'ra har yilgi mehnat ta'tili **unga qulay bo'lgan vaqtda** beriladi.



Boshqa imtiyozlar



Agar ish joyida **favqulodda holat** bo'lsa,



birinchilardan bo'lib **masofaviy ishlashga** o'tkaziladi.



Shu bilan birga **o'n sakkiz yoshgacha** bo'lgan no-gironligi bo'lgan bolalarni **xizmat safariga yuborish, tungi ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilish taqiqlanadi.**



Bolani **ishdan bo'shatish** uchun mahalliy mehnat organining **roziligi** kerak bo'ladi.



Mehnat organlari deganda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va uning tumanlardagi bo'limlarini tushunish lozim.

Nogironligi bo'lganlar mehnat qilishi uchun tavsiya etiladigan joylar

Nogironligi bo'lganlar ko'plab joylarda bemaolol hech qanday to'siqlarsiz ishlashi mumkin hisoblanadi. Kimdir ularning ushbu mehnat huquqiga to'sqinlik qilsa, qonun oldida javob beradi. Ammo, nogironligi bo'lganlar uchun qulay bo'lishi uchun quyidagi ish joylarida ishlash tavsiya etiladi:

- ✓ Iqtisodiyot sohasida (dispetcher, ilmiy xodim, muhandis va boshqa);
- ✓ Sog'liqni saqlash sohasida (umumiy amaliyot vrachi, vrach — mutaxassis, laborant va boshqa)
- ✓ Sug'urta, rieltorlik, reklama, savdo-sotiq, tadbirkorlik faoliyati sohasi;
- ✓ San'at va madaniy-ma'rifiy faoliyat sohasi (dirijyor, bibliograf, grimyor, kinooperator);
- ✓ Ta'lim sohasida (tarbiyachi, logoped, o'qituvchi, psixolog va boshqa);
- ✓ Huquq sohasida (yurist, advokat, notarius va boshqa).


Sanab o'tilgan kasblar tashqari ko'plab kasblarda nogironligi bo'lganlar ishlashi mumkin. Quyidagi havola orqali siz nogironligi bo'lgan odamlar qayerlarda ishlashi tavsiya etilishi haqida **to'liq bilib olishingiz mumkin:**

<https://lex.uz/docs/6179643>



Bolalarni ishga olishda, ishlatish jarayonida(og'ir mehnat, tungi ishlar va hokazo) va ishdan bo'shatishda bolaning mehnat huquqlari buzilganda qayerlarga murojaat qilish mumkin?

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)

 **Manzil:** Toshkent shahri, Chilonzor tumani, I.Karimov ko'chasi, 55-uy



+998 (71) 259-74-12




bolalarvakili@gmail.com



www.ombudsman.uz

Adliya vazirligi

 **Manzil:** Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 5-uy



1008




info@adliya.uz



www.adliya.uz

Bosh prokuratura

 **Manzil:** Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 66-uy



1007




bp@prokuratura.uz



www.prokuratura.uz

Ichki ishlar vazirligi

 **Manzil:** Toshkent shahri, Yunus Rajabiy ko'chasi, 1



102




info@iiv.uz



www.gov.uz

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi

 **Manzil:** Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 8-uy



+998 (71) 203-01-40 (117)



info@bv.gov.uz, bandlik@exat.uz



www.mehnat.uz

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

BOLALARNING MEHNAT HUQUQIGA OID QO‘LLANMA

Tuzuvchi:

Muharrir:

Dizayner: **J. G‘ofurov**

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko‘chasi, 19-uy.

Telefonlar: 71-233-28-18, 71-280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Bosishga ruxsat etildi 25.09.2024-yil.

Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. “Calibri” garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog‘i 1.

Nashriyot hisob tabog‘i 0,59. Adadi *** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.